



**TOSHKENT SHAHRIDA 2019 YIL YANVAR- IYUL OYLARI UCHUNSANOAT
MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI**

Sanoat mahsuloti hajmi

28 832,8 mlrd.so'mni,

sanoat ishlab chiqarish

indeksi 103,3 % ni tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

hajmi 12 840,7 mlrd.so'mni va

o'sish sur'ati 107,5 % tashkil etdi.

Iste'mol tovarlarining jami sanoat

ishlab chiqarish hajmadagi ulushi

44,5 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishda kichik

biznesning ulushi – 67,3 %

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar - iyul oylarida Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari tomonidan 28 832,8 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 103,3 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat hajmi indeksi 103,7 %, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 104,5 %, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 93,2 % va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 106,8 % ni tashkil qiladi.

2019 yilning yanvar-iyul oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, % da



- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (indeks - 104,5 %)
- Ishlab chiqaradigan sanoat (indeks - 103,7 %)
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (indeks - 93,2 %)
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (indeks - 106,8%)




TOG'-KON SANOATI VA OCHIQ KONLARNI ISHLASH

Iqtisodiy tarmoqlar kesimida o'rganilganda, joriy yilning yanvar - iyul oyida Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 1720,1 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi va jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotidagi ulushi 6,0 % ni tashkil etgan.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha tabiiy gaz va xom neft qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 110,1 % va boshqa tog'-kon sanoati faoliyati esa 96,0 % ni tashkil etgan.

TOG'-KON SANOATI VA OCHIQ KONLARNI ISHLASH MAHSULOTLARI






ISHLAB CHIQARADIGAN (QAYTA ISHLASH) SANOATI

2019 yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 25043,5 mlrd.so'mni va o'tgan yilga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 103,7 %. Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 4,8 % ni, o'rta-yuqori texnologiyali – 25,1 %, o'rta-quyi texnologiyali – 34,4 %, quyi texnologiyali – 35,7 % ni tashkil etdi.

**2019 yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha
ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi**



- Yuqori texnologiyali
- O'rta-yuqori texnologiyali
- O'rta-quyi texnologiyali
- Quyi texnologiyali

O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan tog'-kon sohasidagi texnik xizmatlar 17,8% ga, boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish 17,2% ga kamaygan.

Shu bilan bir qatorda, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish 57,0% ga, elektir uskunalar ishlab chiqarish 18,8 % ga va ichimlik sanoati 16,0% ga oshgan.



2018 yil yanvar-iyulda
ishlab chiqarilgan

ISHLAB CHIQARADIGAN (QAYTA ISHLASH) SANOATI

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI




2019 yil yanvar-iyulda
ishlab chiqarilgan



2487419,7
mln.so'm

2018-yil yanvar-iyulga
nisbatan 104,1 % da

ICHIMLIKLER ISHLAB CHIQARISH



2018-yil yanvar-iyulga
nisbatan 116,0 % da

TAMAKI MAHSULOTLARI



2018-yil yanvar-iyulga
nisbatan 157,0 % da



2018 yil yanvar-iyul
ishlab chiqarilgan

ISHLAB CHIQARADIGAN (QAYTA ISHLASH) SANOATI

TEKSTIL MAHSULOTLARI



1273870,3
mln.so'm



2018-yil yanvar-iyulga
nisbatan 108,1 % da

2019 yil yanvar-iyulda
ishlab chiqarilgan



151115,4
mln.so'm



530148,1
mln.so'm



2018-yil yanvar-iyulga
nisbatan 107,2% da



655651,3
mln.so'm



143154,9
mln.so'm



2018-yil yanvar-iyulga
nisbatan 106,3 % da



194559,1
mln.so'm



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI SANOAT STATISTIKASI BO'LIMI




SUV BILAN TA'MINLASH, KANALIZATSIYA TIZIMI, CHIQINDILARNI UTILIZATSIYA QILISH.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 481,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 1,7 % ni) tashkil etganligi kuzatildi. Bunda 2019 yil yanvar-iyul oylarida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6.8 % ga ko'paygan.

ISTE'MOL TOVARLARNI ISHLAB CHIQARISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'mol tovarlari va xizmatlar bozorini rivojlantirish hamda takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida joriy yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahridagi sanoat korxonalarini tomonidan 12840,7 mlrd. so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarildi va 2018-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,5 % ni tashkil etdi. Umumiy sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi ulushi 44,5%.

2019 yilning yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari, % da






ISTE'MOL TOVARLARINI ISHLAB CHIQARISH

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 3891,0 mlrd.so'mni tashkil etib, jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 30,3 %, nooziq ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 8491,7 mlrd.so'm, jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 66,1 %, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish 458,0 mlrd.so'm hisoblanib jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 3,6 % tashkil etdi.


2019 YILNING JANVAR-IYUL OYIDA TUMANLARNING JAMI ISTE'MOL TOVARLARI ISHLAB CHIQARISH HAJMIDAGI ULUSHI, % DA

Toshkent shahar iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmida eng ko'p ulush Yashnobod tumani (shahar iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining (11,3 % ulushini), Chilonzor (11,3 %) Olmazor (10,8 %), Bektemir (10,8 %) va Mirzo Ulug'bek (9,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Shu bilan birga eng kam ulush Yakkasaroy (6,7 %) tumani, Yunusobod (7,1 %) va Uchtepa (7,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.





**2019 YILNING YANVAR-IYUL OYLARIDA HUDUDLARDA ISTE'MOL
TOVARLARNI ISHLAB CHIQARISH HAJMI, % DA**



Shu o'rinda iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda eng yirik o'sish suratlari Bektemir tumani (117,8%), Chilonzor tumani (110,6 %) va Yunusobod tumanlarida (107,7%) kuzatilgan.

Eng kam o'sish sur'atlari esa Olmazor tumani (103,7%) Mirzo Ulug'bek tumani (104,7%) ga to'g'ri keladi.



HUDUDLARNING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Mirobod tumani (Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmining 14,2 % ulushini), Yashnobod tumani (11,8 %), Mirzo Ulug'bek tumani (10,3%), Bektemir tumani (10,3 %) va Sergeli tumani (9,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuning bilan birga eng kam ulush Uchtepa (5,6 %), Yakkasaroy (5,6 %), Chilonzor (6,6 %), tumanlariga to'g'ri keladi.

2019 YILNING YANVAR- IYUL OYLARIDA HUDUDLARNING JAMI SANOAT ISHLAB CHIQARISH HAJMIDAGI ULUSHI, % DA





SANOAT ISHLAB CHIQARISHDA KICHIK BIZNESNING ULUSHI

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-iyul oylarida Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulush – 67,3 % ni tashkil etgan.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Olmazor tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 89,4 %), Uchtepa (87,8%), va Yunusobod (87,4 %), Chilonzor (86,4%) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mirobod (27,5 %), Mirzo Ulug'bek (43,3%) va Shayxontohur (56,2 %), tumanlarida kuzatildi.

HUDUDLAR BO'YICHA KICHIK BIZNESNING SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHDAGI ULUSHI, % DA

